



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 24.01.2022 г. № 12-15/941

между "HUDUDGAZTA'MINOT" AJ и Тошкент тумани ХТБ на общую сумму 3899940,00

Глава

075

Казначейский лицевой счёт

100022860272657096100075002

(в сумах)

| Наименование месяцев<br>2022 г. | Виды расходов**<br>(соответствующий код бюджетной классификации) |  |  | Всего        |
|---------------------------------|------------------------------------------------------------------|--|--|--------------|
|                                 | 4222000                                                          |  |  |              |
| Январь                          |                                                                  |  |  |              |
| Февраль                         | 2 599 080,00                                                     |  |  | 2 599 080,00 |
| Март                            | 1 300 860,00                                                     |  |  | 1 300 860,00 |
| Апрель                          |                                                                  |  |  |              |
| Май                             |                                                                  |  |  |              |
| Июнь                            |                                                                  |  |  |              |
| Июль                            |                                                                  |  |  |              |
| Август                          |                                                                  |  |  |              |
| Сентябрь                        |                                                                  |  |  |              |
| Октябрь                         |                                                                  |  |  |              |
| Ноябрь                          |                                                                  |  |  |              |
| Декабрь                         |                                                                  |  |  |              |
| Всего за год                    | 3 899 940,00                                                     |  |  | 3 899 940,00 |

Всего 3899940,00 сум

Три миллиона восемьсот девяносто девять тысяч девятьсот сорок  
сум 00 тийин  
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы \_\_\_\_\_ сум или \_\_\_\_\_% \*\*\* от общей суммы договора  
подлежат предоплате в \_\_\_\_\_ мес. 20\_\_ г.

— Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_%, от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика

М.П.



(подпись)

Уткиров М.

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Мирсобитова Ф.

Ф.И.О.

Принял работник казначейского  
подразделения

(подпись)

Получил работник  
заказчика

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RI SIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyi haning turi:

**Shartnoma.**

2. Loyi haning nomi:

**Tabiiy gazni ulgurji istemolchilarga yetkazib berish va qabul qilish shartnomasi.**

Toshkent tuman xalq ta'limi bo'limi va Toshkent tuman "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali o'rtasida tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha jami qiymati 3 899 940 so'm bo'lgan shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

**Toshkent tuman xalq ta'limi bo'limi, 2022-yil 13-yanvar.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti**



**B.Murodov**

2022-yil "14" yanvar

Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga etkazib berish va qabul qilish  
SHARTNOMASI

2022 yil "4" yanvar №12-15/ 841 -son  
(shartnoma tuzilgan joy) Nurafshon shahar

Nizom asosida faoliyat yurituvchi **TOSHKENT TUMANI XTB** (Iste'molchi nomi) (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari mudir v.v.b M.O'TKIROV bir tomondan hamda Nizom va 2022 yil 5 yanvarda berilgan 031911/41-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali (gaz ta'minoti tashkiloti nomi) (keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari M.R.Aliev ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini oladi. Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarini belgilangan narx bo'yicha o'z mudaratida amalga oshiradi.

1.2. Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihasiga muvofiq, gazdan foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, elektron gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda Etkazib beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yoriarga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniqacha qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha etkazib beriladigan gaz hajmi to'rtinchi shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 5,909 kub m. narxi 2,899,940 so'mni tashkil qiladi, jumladan chiqarilar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

|            |       |             |        |             |        |             |         |             |
|------------|-------|-------------|--------|-------------|--------|-------------|---------|-------------|
| I chorak   | 5,909 | mingkub.m.  | yanvar | <u>1968</u> | fevral | <u>1968</u> | mart    | <u>1971</u> |
| II chorak  | —     | mingkub.m.  | aprel  | —           | may    | —           | iyun    | —           |
| III chorak | —     | ming kub.m. | iyul   | —           | avgust | —           | sentabr | —           |
| IV chorak  | —     | mingkub.m.  | oktabr | —           | noyabr | —           | dekabr  | —           |

Etkazib beruvchi tomondan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistr va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi \_\_\_\_\_ ming kub metrni, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

|            |   |             |        |   |        |   |         |   |
|------------|---|-------------|--------|---|--------|---|---------|---|
| I chorak   | — | mingkub.m.  | yanvar | — | fevral | — | mart    | — |
| II chorak  | — | mingkub.m.  | aprel  | — | may    | — | iyun    | — |
| III chorak | — | ming kub.m. | iyul   | — | avgust | — | sentabr | — |
| IV chorak  | — | mingkub.m.  | oktabr | — | noyabr | — | dekabr  | — |

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Etkazib beruvchi tomondan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. Etkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomondan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

**II. GAZNI ETKAZIB BERISH SHARTLARI**

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) mudatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzda tabiiy gazni Etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Etkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yori doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Etkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgarishiga to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

Toshkent tumani Keles yo'li 14

2.4. Etkazib beruvchi Iste'molchini gaz etkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart. Magistr va gaz quvurlarida yuz bergan avariya holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2.5. Magistr va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganda, shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemolchilarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida Etkazib beruvchi, Iste'molchini o'gohlantirgan holda gaz etkazib berishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega, Iste'molchi esa xavira yoqilg'i turidan foydalanishga o'tadi.

2.6. Iste'molchi etkazib beruvchi bilan gaz etkazib berish-qabul qilish doirasida tezkor ma'lumotlarni muntazam almashishni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi xavira yoqilg'i turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni Etlari miqdorda (3 oydan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Iste'molchi Etkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq xavira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz etkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GTP (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalaridan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan hollarda Iste'molchi Etkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi yoki Etkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgaragan holatlarda ular zudlik bilan bir-birini bu haqida xabarдор qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi va Etkazib beruvchining talablarini bajarish, Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

### III. ETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH

3.1. Gazni hisobga olmasdan etkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. Etkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi hisoblanib) Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi, tegishligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitida 1 m<sup>3</sup> gaz olinadi: xarorat 20° C, bosim 101,325 kPa (760 mmHg) (ГОСТ 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat amaliy) qiyoslanadi bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. Etkazib beruvchining yoki Iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.

3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorga muvofiq amalga oshiriladi va Etkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TCHNAT-ASKUG) larga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'z DSt 8.030:2008 "Yoqilg'i va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DSt 8.031:2008 "Yoqilg'i va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining ijoy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikatli va/yoki metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining qiyoslov ko'rigidan va/yoki metrologik attestatsiyasidan o'tish davrini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari egasi gaz o'lchash priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov komplekslarini (va uning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarining bir qismini sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrash, toraytish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish xizmatlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Rejalashtirilgan ishlarining bir qismini sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrash, toraytish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish xizmatlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Etkazib beruvchining vakilini gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'lchash priborlarini almashtirish, gazni o'lchashning bosqich usullarini tanlash masalalarini Etkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat amaliy) gaz o'lchash priborining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Gaz o'lchash priborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lchash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. Etkazib beruvchi, iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida etkazib berilishini ta'minlaydi.

3.14. Etkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'lchash priborlariga va/yoki o'lchash kompleksining gaz hajmini o'lchashga ta'sir qiladigan qismlariga iste'molchi ishtirokida o'rnatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'rnatilgan tamg'alarni butligiga iste'molchi javobgardir.

3.15. Etkazib beruvchi iste'molchining gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xuquqiga ega. Shu bilan birga, iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Etkazib beruvchi vakillarining o'lchash priborlari va/yoki o'lchash komplekslariga to'siqsiz kirishini ta'minlaydi.

3.16. O'z DSt 8.586.1-5)-2005 bo'yicha o'lchov kompleksi va o'lchash priborlari ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DSt 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'lchash qurilmasi va/yoki o'lchash kompleksi faoliyatiga ruxsatsiz aralashish holatlari bundan mustasno.

3.17. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tamg'alannagan gazdan foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli – gazni hisoblash pribori va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganda, gazni hisoblash priborini ehtiyab o'tgan xolda iste'mol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda – oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) hisobga olish pribori buzilganda (hisobga olish pribori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) – shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan xolda bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pribori mavjud bo'lmaganda – qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun Echlilganda – hisobga olish pribori echlilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovdan o'tkazilib, sertifikat olinib joyiga o'rnatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish priborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda – qiyoslov ko'rigidametroligik attestatsiya o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun Echlilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

e) hisobga olish pribori yoki o'lchov kompleksining qismlariga o'rnatilgan tamg'alarning butligi buzilganda – oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtidan boshlab, lekin bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) hisobga olish priborini o'zlashtirish ehtiyoqi bo'yilganda – oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtidan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

z) gazni tarqatish tarmoqlarining texnologik rejimini buzilgan gaz quvurlarida yoki GTJlarda asbob-uskunalar o'rnatilganda – olingi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtidan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga.

i) Gaz hisoblash uskunasi konfiguratsiyalariga noqonuniy tarzda tashqi ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqlanganda – tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga olish priborining xotirasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'lchashni avtomatlashtirilgan tizimidan hisobot o'yida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki Etkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda. (Hisob-kitob uchun TGHNAT (ASKUC) tizimi joriy qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHNAT tizimida qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi);

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'lchov chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plomballanmagan gaz jihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa – gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan oxirgi mara borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz qurilmasi o'rnatish holati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarini o'rnatib olib foydalanayotganlik fakti bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo'lganda) – bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pribori gaz hajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pribori va/yoki o'lchov kompleksining me'yoriy-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'lchovning pastki chegarasida olinadi.

3.19. Etkazib beruvchi tomonidan etkazib beriladigan gaz hajmining ishonchligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lchov komplekslari va hisoblash priborlarining ishlashi buzilgan holatlar aniqlanganda, Etkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'limlarida o'lchov komplekslari va gazni hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'lchov komplekslari va hisoblash priborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazilishni talab qilgan uchun to'lovlar iste'molchi tomonidan, soz holatida bo'lganda esa – ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pribori ishdan chiqqandayoki hisobga olish priboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqlangan taqdirda iste'molchi 24 soat ichida Etkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. Shuningdek korxonadagi gaz ishlatadigan asbob-uskunalarini ishlash grafigini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini Etkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tamg'alashini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish priborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda gavya hisob-kitoblar oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtidan boshlab aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. O'z DSt 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari geymetik holatda bo'lishi kerak).

#### IV. ETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI AMALGA OSHIRISH

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida etkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amalga qo'yilishiga muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Etkazib beruvchining hisob rag'atiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiyomatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin, gaz ta'minoti tashkilotining hisob rag'amiya tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob, hisobot o'ynining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz etkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilgan taqdirda, iste'molchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va jilimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va jilimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berishga shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1,4 ko'effitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priyorini almashirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun echib olish, shuningdek, iste'molchiga aloqador bo'lmagan turli bil (elektr ta'minoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k.)dagi texnik nosozliklar aniqlanganligi sababli, iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'tirilgan gaz asbob uskunalarini to'liq quvvat bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun iste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lar, iste'molchini xabardor qilgan holda qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganida, iste'molchi muddat o'tigan har bir kun uchun muddat o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddat o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob o'yida etkazib berilgan tabiiy gaz hajmi etkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish tartibidan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNA) ga ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish prioritetiga ega bo'lgan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar boshdan mustasno) asosida, keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar «Askaniy» tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish prioriteti ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalaridan foydalanilgan holda kiritish orqali aniqlanadi.

4.13. Shartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi oyning 5 kuniga qadar Etkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz Etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan iste'molchiga elektron hisobvaraq-faktura yuboriladi.

4.14. Etkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash priori holatidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQlardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi o'ynining 7 kunidan kechiktirmasdan Etkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvaraq-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vaklitiga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan dehqor qarzlarni undirish, Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zbo'shimchalik bilan qayta ulanganida, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (naxlar) o'zgargan taqdirda, Etkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgarganida, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuzatib borilganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tarzida to'langan hajmi uchun to'lov kunidan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilmaydi.

## V. HUQUQBUZARLIKLAH VA GAZDAN NOOONUNIV FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17 va 4.18 bandida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Etkazib beruvchi va

Istic'molchi vakillari tomonidan imzolangan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Istic'molchidan, foydalangan gaz hajmi (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirishi Istic'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA

### ULANISH TARTIBI

6.1. Istic'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu holatlarning bartaraf etilguniga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;
- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunolari va hisobga olish qurilmalarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;

- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

- shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda olinandan to'lovlar amalga oshirilmaganda;

- Etkazib beruvchining va "O'zmetgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganda;

- hisoblash priborlariga qasddan zarar Etkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;

- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;

- Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taroj qilish holatlari aniqlanganda;

Bunda Etkazib beruvchi, gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida Etkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Iarnogqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq Istic'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan holat bundan mustasno.

6.3. Gaz, Istic'molchini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TIZIM) berilgan ulangan Istic'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

## VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

7.1. Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;

- o'ziga qarashli gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularni ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish; - tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'ri Istic'molchilarni xabardor qilish;

- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini ta'minlash;

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilguniga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishlariz tarmoqdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz Istic'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- Istic'molchiga gaz Etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni Etkazib berish;

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining taqdimomasiiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Etkazib beruvchi va vakolatli davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq Istic'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik tatlitishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish;

- tabiiy gaz sizib chiqishida — darhol;

- oxqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- isitish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) — ikki kun davomida;

- Gazdan foydalanish uskunalarini 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Etkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratlarga ko'ra, Istic'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni Etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

- gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

- Istic'molchidan tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini va gazni Etkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;

- tabiiy gazni Etkazib berish shartnomasini iffo qilishdan qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

- gaz tarmoqlarida avariyaning olinini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan holatlarni ko'rish zarurati yuzaga kelganda, Istic'molchi bilan kelishmagan va uni ogohlantirmagan holda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan qoidabuzarliklar

bartaraf etilganiga qadar avvaldan ogohlantirilmagan holda gaz etkazib berishni to'xtatish.

- tabiiy gaz etkazib berish shartnomasini bir tomonlana bekor qilish.

7.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- hisobot oyida tabiiy gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va hisob-varagisini rasmiylashtirish uchun har oyning 5-sanasigacha Etkazib beruvchiga elektron gaz hisobdolini arxiv ma'lumotlari (raspecharka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.

- tekhi gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik ta'tisidan o'tkazish va ularga profilaktika xizmati ko'rsatish uchun Etkazib beruvchi bilan tasdiqlangan tariflar bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnoma tuzadi.

- Iste'molchi bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomada ko'rsatilgan rekvizitga asosan Etkazib beruvchiga 100 foiz to'lov amalga oshiradi.

- gazdan oqilona va iqtisodiyot bilan foydalanish;  
- gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalarini texnik jihatdan soz holatda saqlash;  
- gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasi vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish;

- o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarni muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqish;

- gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlangan, gazlashtirish loyihasiga (LTH) muvofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasi nishiga yo'l qo'ymaslik;

- gaz Etkazib beruvchi vakillari va "O'zneftgazinspeksiya" xodimlarining (tegishli guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va yoki gazdan foydalanish uskunasi kunning isalgan vaqida erkin ko'zdan kechirishni ta'minlash;

- gazdan foydalanish uskunasi nishiga nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tanq'alarining butunligini ta'minlash;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, gaz ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.

- Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasida tabiiy gaz sarti bo'yicha ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashirilgan (TGHINAT-ASKUG) tizimiga ulangan hisoblash priborlari iste'molchi tomonidan o'rnatilish.

7.4. Iste'molchi Etkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

- Etkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, Etkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishlashining ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;

- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifatida va Etkazib berish rejimiga to'ya qilgan holda o'rnatilish;

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasi bekor qilenganda, foydalanilmagan gaz

hajmi uchun to'langan summani qaytarish;

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlana bekor qilish;

- tabiiy gazni etkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlari bundan mustasno);

- gaz etkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.

Iste'molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

## VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1. Etkazib beruvchi iste'molchiga gaz etkazib berish shartnomasiga asosan gaz etkazib berilmagan yoki to'liq etkazib berilmaganligi oqibatida etkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Etkazib beruvchi gazni etkazib bermaganlik yoki to'liq etkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

a) Iste'molchi tomonidan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasi ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda;

b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganda;

v) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.

g) iste'molchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilmaganda;

d) nazkur shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. Etkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga natijasida iste'molchiga moddiy zarar etkazilganda, Etkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz etkazib berilgan taqdirda, Etkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomasiz ixtisuslashtirilgan bazasi to'g'risida gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi hollarda bundan mustasno:

a) fers-majior hollalar;

b) magistrat gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya hollalari yuz berganda;

v) qish davrida vaqtincha gaz etkazib berish cheklanganida (O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek, Qorag'aypo'yiston Respublikasi Vazirlar Kengashi viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz etkazib berish tarmog'idan uzib



Budjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi, shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Budjetdan mablag' oluvchilar har yili 2022 yil 31 dekabr sanasigacha amal qilishlari lozim.

12.4. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

### XIII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

13.1. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun uch nusxada tuzilgan, uchta nusxasi ham bir hil yuridik kuchga ega.

### XIV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>«ETKAZIB BERUVCHI»</b><br><b>«Xududgazta'minot» AJ</b><br><b>«Xududgaz Toshkent» filiali</b><br><br>100115, Toshkent Viloyati, Nurafshon shaxri, Sport Kuchasi 37-A uy<br><br>Manzil: Tel./faks: (78) 150-31-30, (78) 150-30-95<br><br>Bank nomi: «Uz sanoatkurilishbank» Rakat filii<br><br>MFO: 00435<br><br>INN: 306605769<br><br>OKED: 35220<br><br>X/R: 2263 4000 5051 1396 0442<br><br>Rahbar: <u>M.R.Ajiev</u><br><br>Imzosi: <br><br>Muh: o'rm | <b>«ISTE'MOLCHI»</b><br><b>TOSHKENT TUMANI XTb</b><br><br><b>Keles yo'li 14 uy</b><br><br>(budjet tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nomi)<br>Pochoa manzili: <u>111100</u><br><b>OKPO kodi</b><br><b>OKED 84110</b><br>Muloqot telefoni <u>97 736 37 60</u><br>G'az./h <u>23402000300100001010</u><br>Bank nomi: <u>Mb Toshkent mb.BS</u><br><br>MFO <u>00401</u><br>INN <u>207 266 892</u><br>sh/h <u>100022860272657096100075002</u><br>h/r _____<br><br>Moliya vazirligi g'aznachiligi<br>(g'aznachilik bo'limi nomi)<br><br>Rahbar: <u>M.B.O'qitov</u><br><br>Imzosi: <br><br>Muh: o'rm |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Yuridik mas'ul shaxsning imzosi va qabul qilishga oid muhri bilan shartnomani o'zaro imzolashni o'rganib, shartnomaning majburiyatlarini O'zbekiston Respublikasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Jangirolik Kodeksining tegishli moddalarini va boshqa normativ hujjatlar talablariga rioya qilgan holda tuzilganligini e'tirof etib, shartnoma tomonlari o'rtasida imzolangan tariqda imzolashlari tavsiya qilinadi.

(F.I.Sh.)

(sana)

